

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/26.05.2022.T.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI FUNDAMENTAL VA AMALIY
TADQIQOTLAR INISTITUTI**

SAMANDAROV ERKABOY KARIMBOYEVICH

**O‘QUVCHILARNI PSIXOLOGIK HOLATI VA BILIM DARAJASINI
BASHORATLASH HAMDA BOSHQARISH ALGORITMLARI**

05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
technical sciences**

Samandarov Erkaboy Karimboyevich

О‘quvchilarni psixologik holati va bilim darajasini bashoratlash hamda boshqarish
algoritmлари 3

Самандаров Эркабой Каримбоевич

Алгоритмы прогнозирования и управления психологическим состоянием а
также уровнем знаний школьников.....21

Samandarov Erkaboy Karimboyevich

Algorithms for predicting and managing the psychological state as well as the
knowledge level of schoolchildren39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/26.05.2022.T.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI FUNDAMENTAL VA AMALIY
TADQIQOTLAR INISTITUTI**

SAMANDAROV ERKABOY KARIMBOYEVICH

**O‘QUVCHILARNI PSIXOLOGIK HOLATI VA BILIM DARAJASINI
BASHORATLASH HAMDA BOSHQARISH ALGORITMLARI**

05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T5809 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi «Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti» da bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tiame.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxamediyeva Dilnoz Tulkunovna

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Raximov Nodir Odilovich

texnika fanlari doktori, dotsent

Nurimov Paraxat Baymuratovich

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi DSc.03/26.05.2022.T.10.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahri, M.Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel.: (99871) 237-19-36, faks: (99871) 237-54-79, e-mail: admin@tiame.uz).

Dissertatsiya bilan «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent shahri, M.Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel.: (99871) 237-19-45).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2026 yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.)

N.S. Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy Kengash raisi o'rinbosari,
texnika fanlari doktori, professor

D.Q. Bekmurotov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy Kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari falsafa doktori (PhD)

S.S. Radjabov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy Kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda elektron resurslar asosida onlayn o'quv jarayonlarni tashkil etish ta'lim bozorining eng tez o'sayotgan yo'nalishi hisoblanadi va ushbu sohaga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, oxirgi yillarda onlayn ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari va ta'limda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usullarining qo'llanilishini o'sishi kuzatilmoqda. Bozor tadqiqotlari va konsalting bilan shug'ullanuvchi PrecedenceResearch, Grand View Research, Mordor Intelligence tashkilotlarining hisobotiga ko'ra jahon miqyosida ta'lim sohasida sun'iy intellekt bozorining hajmi 2025-yilda 7.57 milliard AQSh dollariga yetdi. 2035-yilga kelib, ta'lim sektorida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashga sarflanadigan mablag' miqdori 136,79 milliard AQSh dollariga yetishi bashorat qilinmoqda. Dunyoda ta'lim sektorida sun'iy intellektni qo'llash 2026-yildan 2035-yilgacha yillik 36,02% o'sishi kutilmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi hamda butun dunyo bo'yicha ta'limga hukumat xarajatlarining oshishi sun'iy intellektni ta'lim bozoriga bo'lgan talabini kuchaytirmoqda. Bu yo'nalishda yetakchilik qilayotgan davlatlarda, jumladan AQSh, Kanada, Germaniya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Italiya, Avstraliya, Rossiya Federatsiyasi, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreyada sun'iy intellekt va ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usullarini ta'lim jarayoniga tadbiriq muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda sun'iy intellekt texnologiyalari va tegishli texnik vositalar hamda dasturiy ta'minotlardan samarali foydalanish orqali onlayn ta'lim jarayonlarini tashkil etish, boshqarish, baholash, bashorat qilish va monitoring qilishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayniqsa, ta'limga sun'iy intellektni tadbiriq etishda katta hajmdagi onlayn ta'lim tizimlari faoliyatini baholash uchun moslashuvchan baholash modellarini yaratish, elektron o'quv resurslarini sinflashtirish, shuningdek, resurslarning informativ belgilari majmuasini shakllantirish va ushbu belgilarni aniqlashga mo'ljallangan usul hamda algoritmlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda mazkur yo'nalishda sun'iy intellekt texnologiyalari, mashinali o'qitish algoritmlari, ta'limda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usullaridan foydalanib ta'lim platformalarini ishlab chiqish va joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasida, jumladan «...o'quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida umumta'lim maktablarining asosiy o'quv dasturlariga doimiy o'zgartirishlar kiritish, ... axborot texnologiyalari sohasidagi tashkilotlarning o'quv jarayonlariga qatnashishini rag'batlantirish orqali umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitish metodlarini takomillashtirish»¹ vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda jumladan, sun'iy intellekt texnologiyalari, mashinali o'qitish algoritmlari va ta'limda ma'lumotlarni tahlil qilish usullari asosida ta'lim platformalari hamda tizimlarni ishlab chiqish sun'iy intellekt texnologiyalarini

¹ O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni

rivojlantirishning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Bu borada, ta'limda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usul va algoritmlarini rivojlantirish, shuningdek, raqamlashtirish hamda tahlil qilish tizimlarida qo'llash shu kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, 2021-yil 26-avgustdagi «Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari» haqidagi PQ-5234-son qarori, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2022-yil 11-maydagi «2022- 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida» gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Axborotlashtirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalari rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ta'limning barcha sohalarida ta'limda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usullarini qo'llash va samarali foydalanish sohasida mustaqil davlatlar hamdo'stligidagi olimlaridan O. V. Yakovleva, O. Hrytsenchuk, S. V. Zaitseva, Y. M. Zhunussov va boshqalar samarali tadqiqotlar olib borgan. Intellektual o'qituvchi tizimlar, moslashuvchan ta'lim platformalari, o'quvchi xatti-harakatlarini tahlil qilish va shaxsiy ta'lim usullarini yaratishda ta'limda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usullaridan foydalanish bo'yicha George Siemens, Dragan Gasevich, Ryan S. Baker, Neil T. Heffernan, Kenneth R. Koedinger, Carolyn Penstein Rose, C.Romeo kabi bir qator xorijiy olimlar fundamental tadqiqotlar olib borganlar.

Respublikamiz olimlari H.Z.Igamberdiyev, D.T.Muxamediyeva, N.S.Mamatov, O.J.Bobomurodov, O'.R.Hamdamiyev, N.O.Raximov, B.A.Akhmedov, S.S.Radjabov, T.F.Bekmuratov, Sh.H.Fozilov, A. Mirzayev, X. Madatov, M. Kasimova va boshqa olimlar mashinali o'qitish algoritmlari, ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usullari, ta'limda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usullarini qo'llash sohasida tadqiqotlar olib borishgan. Olib borilgan tadqiqotlarning dastlabki natijalari ijobiy, ammo ushbu sohadagi muammolarga kengroq yechim beradigan va uzoq muddatli olib boriladigan tadqiqotlar zarur.

Hozirgi kunda sun'iy intellekt va mashinali o'qitish algoritmlarini ta'limda qo'llash bo'yicha tadqiqotlar boshlang'ich bosqichda. Asosan o'quvchilarni sun'iy intellekt vositalarini, ya'ni generativ sun'iy intellekt dasturlarida ishlashga o'rgatish bo'yicha sifatli tadqiqotlar olib borilmoqda. Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar ta'lim uchun o'quv materiallarini yaratishi va o'quvchilarni baholash uchun ta'limda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usullaridan foydalanishga ijobiy

munosabatdalar. Biroq, keng ko‘lamli ta‘lim ma‘lumotlarini intellektual tahlil qilish, intellektual o‘qituvchi tizimlari va o‘quvchilarni fanlarni o‘zlashtirish muvaffaqiyatlarini bashorat qilish modellari bo‘yicha chuqur tadqiqotlar yetarli miqdorda olib borilmayapdi. Sohoni rivojlantirish uchun xalqaro tajribalar bilan integratsiya va uzoq muddatli tajribalar zarur.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy-innovatsion markazining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, BV-V-F4-011 “Noaniqlik sharoitlarida ma‘lumotlarni intellektual tahlilining noravshan-nokorrekt masalalarini yechish usul va algoritmlari” (2017-2020) mavzusidagi ilmiy loyihi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mashinali o‘qitish algoritmlardan foydalanib, maktab o‘quvchilarini bilim darajasini sinflarga ajratish va bashorat qilish hamda psixologik holatidagi depressiya darajasini bashorat qiluvchi algoritmlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘quvchilarni psixologik holati va bilim darajasini bashoratlash hamda boshqarish algoritmlarini analitik tahlil qilish;

o‘quvchilarning yoshiga mos kognitiv rivojlanish darajasi, o‘zlashtirish sur‘ati, mantiqiy fikrlash qobiliyati hamda matematika faniga oid nazariy va amaliy bilimlarini baholovchi ko‘rsatkichlar asosida bilim darajasini kompleks aniqlash algoritmini ishlab chiqish;

o‘quvchilarning akademik tayyorgarligi, fanlarni o‘zlashtirish qobiliyati, o‘quv muhitiga moslashuv darajasi hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish orqali ularning muayyan sinf yoki guruhga mosligini baholashning intellektual qoidalar tizimini ishlab chiqish;

diqqat, xotira, motivatsiya, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, kommunikativ faollik va boshqa psixometrik parametrlar asosida o‘quvchilarning psixologik holatini baholash hamda kelgusidagi o‘zgarishlarni bashoratlash algoritmini ishlab chiqish;

adaptiv intellektual tizimlar imkoniyatlaridan foydalanib, o‘quvchilarning psixologik holati va o‘quv natijalari o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlash, bilim darajasidagi o‘zgarishlarni bashoratlash hamda bilim darajasini boshqarish uchun gibrin neyron tarmoq modelini ishlab chiqish;

hisoblash eksperimenti va tadqiqot natijalarini qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqotning obykti sifatida maktab o‘quvchilarini bilim darajasini bahosi olingan.

Tadqiqotning predmeti maktab o‘quvchilarini bilim darajasini sinflashtirish modellari va algoritmlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Ishning nazariy tadqiqotlari ma‘lumotlarni intellektual tahlil qilish, sun‘iy intellekt, mashinali o‘qitish algoritmlari, neyron to‘rlarga asoslangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'quvchilarni yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni matematika fanidan bilim darajasini aniqlash algoritmi ishlab chiqilgan;

o'quvchilarni bilim darajasi, qobiliyati va adaptiv ko'rsatkichlari asosida o'quvchini sinfga moslik darajasini aniqlash qoidasi ishlab chiqilgan;

o'quvchilarni psixometrik ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda ularni psixologik holatini bashoratlash algoritmi ishlab chiqilgan;

o'quvchilarni psixologik holati va bilim darajasini inobatga olgan holda psixologik holatini bashoratlash va bilim darajasini boshqarish gibril neyron tarmoq modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Maktab o'quvchilarini bilim darajasini hamda psixologik holatidagi depressiya darajasini bashorat qilish, sinflarga ajratish intellektual model va algoritmlar ishlab chiqilgan;

Intellektual model va algoritmlar asosida bashorat qilish hamda maktab o'quvchilarini bilim darajasiga mos ta'lim materiallarini taqdim qilish dasturi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi maktab o'quvchilarini bilim darajasini hamda psixologik holatidagi depressiya darajasini bashorat qilish, sinflarga ajratish uchun model va algoritmlarni ishlab chiqishda matematik apparatning to'g'ri qo'llanilishi hamda tajribaviy tadqiqotlarning ijobiy natijalari bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati LightGBM mashinali o'qitish algoritmi, DKT va transformer mashinali o'qitish modellari ketma-ketligidan iborat gibril model va XGBoost mashinali o'qitish algoritmi asosida sinflashtirish modelini takomillashtirish bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati maktab o'quvchilarini bilim darajasini gibril intellektual yondashuv asosida sinflashtirish model va algoritmlarini qo'llab, o'quvchilarning matematika fanidan o'zlashtirish darajasini oshirishni baholash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'quvchilarni psixologik holati va bilim darajasini bashoratlash hamda boshqarish bilan bog'liq bo'lgan mavjud hamda taklif etilgan model va algoritmlar yordamida ishlab chiqilgan dasturiy majmua:

O'quvchilarni psixologik holati va bilim darajasini bashoratlash hamda boshqarish algoritmlari asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi 16-son umumiy o'rta ta'lim maktabiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 30-oktabrdagi 23-23-09/11069-son ma'lumotnomasi). Natijada, ta'limda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usullari asosida yaratilgan ta'lim platformasi sinov-tajriba rejimida inson faktorini kamaytirgan holatda mashinali o'qitishga asoslangan ta'lim platformasining dasturiy vositasi ishlab chiqildi. Mazkur dasturiy vosita maktab o'quvchilarini matematika fanidan bilim darajasini bashorat qilish va psixologik holatidagi depressiya darajasini bashorat qilishni amalga oshirdi. Mazkur ishlab chiqilgan algoritmi maktab o'quvchilarini bilim darajasini o'rtacha 10-13% oshirish imkoniyatini bergan;

O'quvchilarni psixologik holati va bilim darajasini bashoratlash hamda boshqarish algoritmlari asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua Xorazm viloyati

Hazorasp tumanidagi 31-son umumiy oʻrta taʼlim maktabiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 30-oktabrdagi 23-23-09/11069-son maʼlumotnomasi). Natijada, taʼlimda maʼlumotlarni intellektual tahlil qilish usullari asosida yaratilgan taʼlim platformasi sinov-tajriba rejimida inson faktorini kamaytirgan holatda mashinali oʻqitishga asoslangan taʼlim platformasining dasturiy vositasi ishlab chiqildi. Mazkur dasturiy vosita maktab oʻquvchilarini matematika fanidan bilim darajasini bashorat qilish va psixologik holatidagi depressiya darajasini bashorat qilishni amalga oshirdi. Mazkur ishlab chiqilgan algoritim maktab oʻquvchilarini bilim darajasini oʻrtacha 9-12% oshirish imkoniyatini bergan;

Oʻquvchilarni psixologik holati va bilim darajasini bashoratlash hamda boshqarish algoritmlari asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi 33-son umumiy oʻrta taʼlim maktabiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 30-oktabrdagi 23-23-09/11069-son maʼlumotnomasi). Natijada, taʼlimda maʼlumotlarni intellektual tahlil qilish usullari asosida yaratilgan taʼlim platformasi sinov-tajriba rejimida inson faktorini kamaytirgan holatda mashinali oʻqitishga asoslangan taʼlim platformasining dasturiy vositasi ishlab chiqildi. Mazkur dasturiy vosita maktab oʻquvchilarini matematika fanidan bilim darajasini bashorat qilish va psixologik holatidagi depressiya darajasini bashorat qilishni amalga oshirdi. Mazkur ishlab chiqilgan algoritim maktab oʻquvchilarini bilim darajasini oʻrtacha 10-15% oshirish imkoniyatini bergan;

Oʻquvchilarni psixologik holati va bilim darajasini bashoratlash hamda boshqarish algoritmlari asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi “UPPERMOST” nodavlat taʼlim muassasasiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 30-oktabrdagi 23-23-09/11069-son maʼlumotnomasi). Natijada, taʼlimda maʼlumotlarni intellektual tahlil qilish usullari asosida yaratilgan taʼlim platformasi sinov-tajriba rejimida inson faktorini kamaytirgan holatda mashinali oʻqitishga asoslangan taʼlim platformasining dasturiy vositasi ishlab chiqildi. Mazkur dasturiy vosita maktab oʻquvchilarini matematika fanidan bilim darajasini bashorat qilish va psixologik holatidagi depressiya darajasini bashorat qilishni amalga oshirdi. Mazkur ishlab chiqilgan algoritim maktab oʻquvchilarini bilim darajasini oʻrtacha 11-13% oshirish imkoniyatini bergan;

Oʻquvchilarni psixologik holati va bilim darajasini bashoratlash hamda boshqarish algoritmlari asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua Xorazm viloyati Bogʻot tumanidagi 33-son umumiy oʻrta taʼlim maktabiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 30-oktabrdagi 23-23-09/11069-son maʼlumotnomasi). Natijada, taʼlimda maʼlumotlarni intellektual tahlil qilish usullari asosida yaratilgan taʼlim platformasi sinov-tajriba rejimida inson faktorini kamaytirgan holatda mashinali oʻqitishga asoslangan taʼlim platformasining dasturiy vositasi ishlab chiqildi. Mazkur dasturiy vosita maktab oʻquvchilarini matematika fanidan bilim darajasini bashorat qilish va psixologik holatidagi depressiya darajasini bashorat qilishni amalga oshirdi. Mazkur ishlab chiqilgan algoritim maktab oʻquvchilarini bilim darajasini oʻrtacha 11-13% oshirish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida maʼruza qilingan hamda muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 31 ta ilmiy ish e'lon qilingan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda 3 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarini qayd qilish guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tuzilishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**O'quvchilarning bilim darajasini baholash va bashoratlashning zamonaviy analitik tahlili**» deb nomlangan birinchi bobi o'quvchilarning bilim darajasini baholash va bashoratlashning zamonaviy tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish masalalari va zamonaviy usullari hamda o'quvchilarning bilim darajasini baholash va bashoratlashni analitik tahlili o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usullarini qo'llash hamda o'quvchilarni psixologik holati va bilim darajasini bashoratlash hamda boshqarish algoritmlari uchun masalaning qo'yilishi yoritib berilgan.

1.1-paragrafda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish masalalari va zamonaviy usullari tahlil etilgan bo'lib, unda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usullari haqida batafsil ma'lumotlar bayon etilgan.


1.2-paragrafda o'quvchilarning bilim darajasini baholash va bashoratlash analitik tahlil qilingan bo'lib, unda ta'limda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usullarini qo'llab ilmiy-tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlil etilgan.

1.3-paragrafda o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usullarini amaliyotda qo'llash, ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usullari asosida yaratilgan dasturiy majmualar yoritib berilgan.

1.4-paragrafda o'quvchilarni psixologik holati va bilim darajasini baholash hamda boshqarish algoritmlari matematik jihatdan bayon etilgan. Shuningdek, ushbu paragrafda tadqiqotda qaralayotgan masalani matematik modeli yoritib berilgan (1-rasm).

Dissertatsiyaning «**O'quvchilarning bilimni test yordamida intellektual baholash**» deb nomlanuvchi ikkinchi bobi 3 ta paragrafdan iborat bo'lib, ushbu bob o'quvchilarning bilimni test yordamida intellektual baholashga bag'ishlangan, unda o'quvchilarning bilim darajasini intellektual baholash uchun zarur mezonlarni

aniqlash hamda o'quvchilarni yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni matematika fanidan bilim darajasini aniqlash algoritmi ishlab chiqish bayon etilgan. Shuningdek, o'quvchilarni bilim darajasi, qobiliyati va adaptiv ko'rsatkichlari asosida o'quvchini sinfga moslik darajasini aniqlash algoritmini ishlab chiqish yoritib berilgan.



1-rasm. Olib borilgan tadqiqotning tuzilmasi.

2.1-paragrafda o'quvchilarning bilim darajasini intellektual baholash uchun mezonlarni aniqlash, ya'ni o'quvchilarning bilim darajasini sinflarga ajratish va bashorat qilish uchun LightGBM mashinali o'qitish algoritmi, DKT va transformer modellari ketma-ketligidan iborat gibril modelda foydalaniladigan o'quv ma'lumotlar to'plami tavsiflangan hamda tahlil etilgan.

2.2-paragrafda o'quvchilarni yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni matematika fanidan bilim darajasini aniqlash algoritmini ishlab chiqish bayon etilgan.

Gibril model masalani yechishi bir nechta bosqichlarga bo'linadi. Dastlabki bosqichda DKT va transformer modellari ketma-ketligidan iborat gibril model uchun mo'ljallangan o'quv ma'lumotlar to'plamidan ma'lumotlar yuklanadi va keyingi bosqich uchun tayyorlash amalga oshiriladi. O'quv ma'lumotlar to'plamidagi ustunlar quyidagicha belgilangan:

$$\tilde{s}_i, \tilde{k}_i, \tilde{q}_i, \tilde{o}_i, \tilde{t}_i, \quad (1)$$

bu yerda $\tilde{i} = 1, 2, \dots, n$, \tilde{s}_i – student_id, \tilde{k}_i – skill_id, \tilde{q}_i – question_id, \tilde{o}_i – correct (0 yoki 1), \tilde{t}_i – ms_first_response, n – o'quv ma'lumotlar to'plamidagi satrlar soni.

Har bir o'quvchi uchun vaqt bo'yicha tartiblangan ketma-ketlik quyidagi formula orqali yaratiladi:

$$\tilde{S}_m = \left[\left(\tilde{k}_1, \tilde{q}_1, \tilde{o}_1, \tilde{t}_1 \right), \left(\tilde{k}_2, \tilde{q}_2, \tilde{o}_2, \tilde{t}_2 \right), \dots, \left(\tilde{k}_T, \tilde{q}_T, \tilde{o}_T, \tilde{t}_T \right) \right]. \quad (2)$$

Yuqoridagi formulada \tilde{m} – o‘quvchi tartib raqamini bildiradi, \tilde{T} ta \tilde{m} – o‘quvchi uchun vaqt qadami bo‘yicha ajratilgan savollar soni, \tilde{S} – hamma savollarga berilgan javoblar to‘plami.

DKT modelida har bir o‘quvchining t vaqtda qaysi savolga bergan javobi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lgani one-hot vektor orqali ifodalanadi. Agar o‘quvchiga \tilde{R} ta savol berilsa, har bir vaqt bosqichi uchun o‘lchami $2\tilde{R}$ bo‘lgan one-hot vektori yaratiladi, bunda birinchi \tilde{R} ta element \tilde{i} – savolga o‘quvchi tomonidan to‘g‘ri javob berilgan holat uchun, ikkinchi \tilde{R} ta element \tilde{i} – savolga o‘quvchi tomonidan noto‘g‘ri javob berilgan holat uchun foydalaniladi.

Natijada, one-hot vektori hosil qilinadi va o‘quvchi tomonidan berilgan savollar hamda javoblar ketma-ketligining birlashmasi $(q'_1, r'_1), (q'_2, r'_2), \dots, (q'_{\tilde{R}}, r'_{\tilde{R}})$ orqali har bir bosqichda mos ravishda \tilde{x}_t hosil qilinadi va ular LSTM algoritmgiga ketma-ket kirish qiymat sifatida yuboriladi:

$$h_t = L(\tilde{x}_t, h_{t-1}), \quad (3)$$

bu yerda L – LSTM.

Maktab o‘quvchisining ayni vaqtdagi bilim holati, ya’ni joriy bilim holati:

$$\begin{aligned} h_0 &= 0, \\ h_1 &= L(\tilde{x}_1, h_0), \\ h_2 &= L(\tilde{x}_2, h_1), \\ &\dots \\ h_t &= L(\tilde{x}_t, h_{t-1}), \end{aligned} \quad (4)$$

bu yerda L – LSTM to‘ri.

h_t LSTM to‘rining yashirin holatini beradi va DKT modelida o‘quvchining vaqtga bog‘liq bilimini saqlaydi. LSTM qismidan chiqish sifatida ketma-ketlik bo‘yicha barcha yashirin holatlar to‘plami olinadi:

$$H' = [h_1, h_2, h_3, \dots, h_t], \quad (5)$$

LSTM qatlamidan olingan h_t yashirin holatlari transformer modelining encoder qismiga kiritiladi. Transformer modelining o‘z-o‘ziga e’tibor mexanizmi (self-attention) bloklaridagi asosiy formula quyidagicha:

$$A(Q, K, V) = \beta \left(\frac{QK^T}{\sqrt{d'_k}} \right) V. \quad (6)$$

Transformer modelining ko‘p boshli e’tibor qismi (multi-head attention):

$$\begin{aligned} M'(H') &= C'(h'_1, \dots, h'_h)W^o, \\ h_t &= A(H'W_t^Q, H'W_t^K, H'W_t^V), \end{aligned} \quad (7)$$

bu yerda A – e’tibor (Attention), β – softmax aktivatsiya funksiyasi, M' – ko‘p-boshli e’tibor (MultiHead), C' – ketma-ket birlashtirish (Concat), h' – bosh (head), W – vazn matritsasi, Q – so‘rov, K – kalit, V – qiymat.

Transformer modelining encoder blokida qatlam normallashtirish (LayerNorm) va rezidual (residual) bog‘lanishlar bilan Feed-Forward Network (ikki qatlamli perseptron) bor:

$$\begin{aligned}\tilde{H} &= \tilde{L}(H' + M'(H')), \\ H'' &= \tilde{L}(\tilde{H} + F(\tilde{H})),\end{aligned}\tag{8}$$

bu yerda \tilde{L} – LayerNorm, M' – MultiHead, $H' + MultiHead$ – residual bog‘lanish, eski ma‘lumotni yo‘qotmasdan yangi olingan xulosalarga eski bilimlarni qo‘shib ketadi, *LayerNorm* – qatlam normallashtirish, ma‘lumotlarni bir xil standartga, ya‘ni normaga keltiradi, shunda neyron to‘ri tezroq o‘rganadi, F – Feed-Forward to‘ri, bu qism har bir olingan ma‘lumotni chuqurroq tahlil qiladi (ikki qatlamdan iborat ko‘p qatlamli perseptron).

$$Z = [z_1, z_2, z_3, \dots, z_{\bar{T}}],\tag{9}$$

bu yerda \bar{T} o‘quvchining tizim bilan bo‘lgan barcha muloqotlari soni.

Transformer modelidan chiqishini (9) formula ifodalaydi, u ketma-ketlikdagi har bir pozitsiyaning global kontekstli vakilini beradi.

Ketma-ketlikdan yagona umumiy vektor olingandan so‘ng, u skalyar qiymatga aylantiriladi. Bu holatda ko‘p qatlamli perseptron va sigmoid funksiya birgalikda ishlatiladi.

$$\hat{q} = \tau(W_p^T \phi(W_u u + b_u) + b_p),\tag{10}$$

bu yerda ϕ – aktivatsiya funksiyasi, yuqoridagi holat uchun GELU aktivatsiya funksiyasi ishlatilgan, $W_u u + b_u$ – birinchi qatlam (linear transform), $W_p^T \phi(\cdot) + b_p$ – ikkinchi qatlam (bu odatda bir skalyar chiqish uchun qo‘llaniladi), W_p^T – vektor (matritsa ustunlarining transponirlangani), natijada skalyar s' olinadi: $s' = W_p^T h' + b_p$, τ – sigmoid funksiya, skalyarni $(-\infty; +\infty)$ oraliqdan $(0;1)$ oraliqni oladi.

Natijada, \hat{q} ehtimollik qiymati hisoblanadi, ya‘ni o‘quvchi matematika fani mavzusini qanchalik darajada o‘zlashtirganligi aniqlanadi.

$$\hat{q} \geq \varphi,\tag{11}$$

agar o‘quvchi φ qiymatidan katta yoki teng bo‘lsa, mavzuni o‘zlashtirgan aks holda, mavzuni o‘zlashtira olmagan hisoblanadi.

DKT va transformer modellari ketma-ketlikidan iborat gibridd algoritmlar o‘quvchilarni yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni matematika fanidan bilim darajasini aniqlash algoritmi hisoblanadi.

2.3-paragrafda o‘quvchilarni bilim darajasini, qobiliyatini va adaptiv ko‘rsatkichlari asosida o‘quvchini sinfga moslik darajasini aniqlash algoritmi ishlab chiqish bayon etilgan.

Maktab o‘quvchilarining matematika fanidan bilim darajasi, o‘quvchining qobiliyati va adaptiv ko‘rsatkichlari asosida matematika fanidan o‘quvchining bilim darajasi sinfga moslik darajasini aniqlash qoidasi ishlab chiqilgan. Ushbu qoida quyidagi algoritmlar shaklida ifodalanadi.

LightGBM mashinali o'qitish algoritmi maktab o'quvchilarini fanlardan qaysi sinfga mos ekanligini bashorat qilishda kiruvchi ma'lumotlar sifatida har bir o'quvchiga berilgan a ta test savollarining natijalarini ikkilik ko'rinishda qabul qiladi. Savollar ketma-ketligi:

$$Q_1, Q_2, Q_3, \dots, Q_a. \quad (12)$$

Har bir savolni javob qiymati sifatida 1 yoki 0 saqlanadi. 1 raqami savolga o'quvchi tomonidan berilgan to'g'ri javobni, 0 noto'g'ri javobni bildiradi.

Umumiy maqsad funksiyasi mashinali o'qitish algoritmining aniqligi, ya'ni yo'qotishlar va soddaligi, ya'ni regularizatsiya o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Umumiy maqsad funksiyasi:

$$\tilde{L}(F) = \sum_{s=1}^S L'(v_s, F(X_s)) + \sum_{m=1}^M \Omega(f_m), \quad (13)$$

bu yerda $L'(\cdot)$ – yo'qotish funksiyasi, S – o'quv ma'lumotlar to'plamidagi namunalar soni, v_s – s -obyektning haqiqiy qiymati (o'quvchining haqiqiy bilim darajasi), X_s – s -obyektning belgilar to'plami, $F(X_s)$ – algoritm tomonidan X_s belgilar asosida berilgan bashorat qiymati, M – algoritmga qo'shilgan jami daraxtlar soni, f_m – m -qadamda qurilgan alohida qaror daraxti, $\Omega(f_m)$ – m -daraxtning murakkabligi uchun beriladigan jarima qiymati.

O'qitilgan mashinali o'qitish algoritmi berilgan kirish qiymatlar uchun har bir sinf ehtimolini hisoblaydi. Ko'p sinfli klassifikatsiya uchun softmax funksiyasi qo'llaniladi:

$$p(v = k | X_s) = \frac{e^{F_k(X_s)}}{\sum_{k=1}^K e^{F_k(X_s)}}, \quad (14)$$

bu yerda K – sinflar soni ($K = 6$), $F_k(X_s)$ – k -sinf uchun mashinali o'qitish algoritmining bashorat qiymati.

LightGBM algoritmidan chiquvchi ma'lumotlar sifatida o'quv ma'lumotlar to'plamidagi Sinf ustunidagi qiymatlar tanlanadi:

$$v \in \{6, 7, 8, 9, 10, 11\}. \quad (15)$$

Dissertatsiyaning «**O'quvchilarning psixologik holatidagi depressiyani mashinali o'qitish algoritmlari asosida bashoratlash**» deb nomlangan uchinchi bobi o'quvchilarning psixologik holatidagi depressiya darajasini mashinali o'qitish algoritmlari asosida bashoratlashga bag'ishlangan bo'lib, unda o'quvchilarni psixologik holatini bashoratlashda zarur mezonlarni aniqlash hamda o'quvchilarni psixometrik ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda ularni psixologik holatini bashoratlash algoritmini ishlab chiqish bayon etilgan. Shuningdek, psixologik usul orqali o'quvchilarning psixologik holatidagi depressiya darajasini bashoratlash haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Mazkur paragrafda XGBoost mashinali o'qitish algoritmi yordamida 6-sinfdan 11-sinfgacha oraliqdagi maktab o'quvchilarining psixologik holatidagi depressiya darajasini bashorat qiluvchi algoritmi uchun ishlatiladigan o'quv ma'lumotlar to'plamining barcha ustunlari, ya'ni o'quvchilarni psixologik holatidagi depressiya darajasini bashorat qilishda zarur mezonlar batafsil tahlil qilinadi. Bundan tashqari,

PHQ-A usuli ham batafsil yoritib beriladi. PHQ-A usuli PHQ-9 usulining bolalar va o'smirlar uchun moslashtirilgan shakli hisoblanadi.

PHQ-A usuli orqali o'quvchiga beriladigan savollar uchun javoblar umuman yo'q (0), bir necha kun davomida (1), kunlarning ko'p qismida (2), deyarli har kuni (3) ko'rinishida bo'ladi. 9 ta savollarning har biriga yuqoridagi 4 ta javoblar bir hil shaklda beriladi. Har bir javob uchun 0 dan 3 gacha ball beriladi. O'quvchi 9 ta savollarga javob berganidan so'ng, har bir javob uchun ajratilgan ballar yig'iladi. Ballar yig'indisi quyidagicha sinflarga ajratiladi: 0-4 oraliqdagi ball o'quvchida minimal darajada depressiya bor ekanligini yoki depressiya yo'q ekanligini bildiradi, 5-9 oraliqdagi ball o'quvchida yengil darajadagi depressiya bor ekanligini bildiradi, 10-14 oraliqdagi ball o'quvchida o'rta darajadagi depressiya bor ekanligini bildiradi, 15-19 oraliqdagi ball o'quvchida o'rtadan yuqori darajadagi depressiya bor ekanligini bildiradi, 20-27 oraliqdagi ball o'quvchida og'ir darajadagi depressiya bor ekanligini bildiradi.

3.2-paragrafda XGBoost mashinali o'qitish algoritmi orqali o'quvchilarni psixometrik ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda ularni psixologik holatini bashoratlash algoritmini ishlab chiqish ko'rib chiqiladi.

XGBoost mashinali o'qitish algoritmiga kiruvchi ma'lumotlar sifatida psixologik test savollariga o'quvchi tomonidan berilgan javoblar olinadi:

$$\mathcal{G}_1, \mathcal{G}_2, \mathcal{G}_3, \dots, \mathcal{G}_{18}. \quad (16)$$

XGBoost mashinali o'qitish algoritmi M ta qaror daraxtining yig'indisi sifatida ifodalanadi:

$$F(\mathcal{G}_r) = \sum_{m=1}^M f_m(\mathcal{G}_r), \quad (17)$$

bu yerda $F(\mathcal{G}_r)$ – O'quvchi uchun yakuniy bashorati, ya'ni depressiya darajasi ehtimolligi, $f_m(\mathcal{G}_r)$: m – daraxtning \mathcal{G}_r kiruvchi qiymati uchun bergan hissasini, ya'ni bashoratini bildiradi, M : mashinali o'qitish algoritmida mavjud bo'lgan daraxtlarning umumiy soni.

Maqsad funksiyasi umumiy funksiya, u mashinali o'qitish algoritmini o'rgatish jarayonida minimallashtirish kerak bo'lgan qiymat hamda uning vazifasi eng yaxshi daraxtlar to'plamini topish hisoblanadi. Yo'qotish funksiyasi mashinali o'qitish algoritmining bashoratlari va haqiqiy qiymatlar o'rtasidagi xatolikni o'lchaydi va uning vazifasi mashinali o'qitish algoritmining aniqligini baholashdan iborat. Regulyarizatsiya funksiyasi mashinali o'qitish algoritmining murakkabligini nazorat qiladi va uning vazifasi o'quv ma'lumotlar to'plamiga o'rganib qolishni oldini olish va mashinali o'qitish algoritmini soddalashtirib, yangi ma'lumotlarga yaxshi moslashtirish hisoblanadi.

$$\tilde{L}(F(\mathcal{G}_r)) = \sum_{v'=1}^{\varepsilon} L'((F(\mathcal{G}_r))_{v'}, (F(\mathcal{G}_r))_{v'}^{m-1} + f_m(\mathcal{G}_r)) + \Omega(f_m), \quad (18)$$

$$\Omega(F) = \lambda \hat{T} + \frac{1}{2} \lambda \sum_{\hat{c}=1}^{\hat{t}} w_{\hat{c}}^2, \quad (19)$$

bu yerda \tilde{L} – maqsad funksiyasi, λ – regulyatsiya koeffisienti, \hat{T} – barglar soni, $w_{\hat{c}}$ – \hat{c} bargning og'irligi.

Chiqish, ya'ni maqsad ustuni sifatida ma'lumotlar to'plamidagi "PHQ9_label" va "Honesty" ustunlari olinadi va bu holat o'quvchining test savollariga bergan javoblari hamda javob berish vaqtiga qarab sinflarga ajratish amalga oshiriladi.

Chiquvchi ma'lumotlar sifatida ikkita ustundagi ma'lumotlar chiqadi. Birinchisi "PHQ9_label" ustunidagi ko'p sinfli sinflarga ajratish qiymati.

$$\chi \in \{1, 2, 3, \dots, E'\}, \quad (20)$$

bu yerda $E' = 5$, ya'ni beshta sinf 0-4 oraliqdagi ball minimal darajada depressiya, 5-9 oraliqdagi ball yengil darajadagi depressiya, 10-14 oraliqidagi ball o'rta darajadagi depressiya, 15-19 oraliqdagi ball o'rtadan yuqori darjadagi depressiya, 20-27 oraliqidagi ball og'ir darajadagi depressiya.

Ikkinchi ustun:

$$\chi' \in \{0; 1\}. \quad (21)$$

Ikkilik klassifikatsiya amalga oshiriladi, ya'ni 1 to'g'ri, 0 noto'g'ri sinflar.

3.3-paragrafda XGBoost mashinali o'qitish algoritmidan foydalanib o'quvchilarning psixologik holatidagi depressiya darajasini bashoratlash algoritmi ishlab chiqilgan.

Kiruvchi qiymatlar sifatida 18 ta qiymatlar XGBoost mashinali o'qitish algoritmiga kiritiladi.

Natija sifatida algoritm o'quv ma'lumotlar to'plamidagi ikkita ustunni chiqaradi, birinchisi "PHQ9_label" ustuni ikkinchisi "Honesty" ustuni. "PHQ9_label" ustunida beshta qiymat, ya'ni "minimal", "yengil", "o'rta", "o'rtadan yuqori", "og'ir" jami beshta sinf, ikkinchi "Honesty" ustunida "rost" va "yolg'on" ikkita sinf mavjud. Ikkita chiquvchi ustunlardagi qiymatlar o'zaro kombinatsiyasida jami sakkizta chiqish qiymatlarini hosil qilishadi:


